



THE ROLE OF WRITTEN SOURCES IN THE STUDY OF TOPONYMY OF THE TIMURID PERIOD

Sahodat Murtazova

professor acting, Head of the Department “History and social sciences”
University of Economics and Pedagogy
Uzbekistan, Karshi

Otabek Ziyadov

trainee teacher
University of Economics and Pedagogy
Uzbekistan, Karshi

ABOUT ARTICLE

Key words: toponymy, statehood, Zafarnama, Sahibkiran, military campaigns, sources, historian, manuscript, sayids, scholars, place names, epic poets, trade relations, topography

Abstract: This article describes the toponymy of the Amir Temur era and the information contained in the sources written by historians of this period, important historical events, place names, and valuable information about the history of this period.

Received: 30.11.24

Accepted: 02.12.24

Published: 04.12.24

TEMURIYLAR DAVRI TOPONIMIKASINI O‘RGANISHDA YOZMA MANBALARNING O‘RNI

Sahodat Murtazova

professor v.b., “Tarix va ijtimoiy fanlar” kafedrasi mudiri
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
O‘zbekiston, Qarshi

Otabek Ziyodov

stajyor o‘qituvchi
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
O‘zbekiston, Qarshi

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: toponimika, davlatchilik, Zafarnoma, Sahibqiron, harbiy yurishlar, manbalar, tarixnavis, qo‘lyozma, sayidlar, olimlar, joy nomlari, dostonchilar, savdo aloqalari, topografiya

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amir Temur davri toponimikasi va ushbu davr tarixchilarining yozib qoldirgan manbalarida keltirilgan ma’lumotlar, ulardagi muhim tarixiy voqealar, joy nomlari, mazkur davr

РОЛЬ ПИСЬМЕННЫХ ИСТОЧНИКОВ В ИЗУЧЕНИИ ТОПОНИМИКИ ЭПОХИ ТИМУРИДОВ

Саходат Муртазова

профессор и.о., Заведующий кафедрой “История и обществознание”

Экономико-педагогический университет

Узбекистан, Карши

Отабек Зиядов

преподаватель-стажер

Экономико-педагогический университет

Узбекистан, Карши

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	топонимия, государственность, Сахибкиран, военные походы, источники, историк, рукопись, сайиды, ученые, топонимы, эпические поэты, торговые отношения, топография	Аннотация:	В этой статье описывается топонимия эпохи Амира Темура и информация, содержащаяся в источниках, написанных историками этого периода, важные исторические события, топонимы и ценная информация об истории этого периода.
------------------------	---	-------------------	--

KIRISH

O'zbekiston milliy davlatchilik tarixining bosqichlari, ko'plab tarixiy buyuk shaxslar faoliyati, o'rta asrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va diniy-madaniy jarayonlarning omillari va natijalarini ilmiy tarzda ochib berishda mustaqillik yillarida katta e'tibor qaratildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'kidlaganidek, «...bizning mamlakatimizdagidek boy tarix, bobolarimizdek buyuk allomalar hech qayerda yo'q. Bu merosni chuqur o'rganishimiz, xalqimizga, dunyoga yetkaza bilishimiz kerak»[1]. O'zbekiston mustaqil davlat bo'lgach, o'lkaning tabiatidan oqilona foydalanish va xo'jalikni yangi iqtisodiy jarayonlarga moslab rivojlantirish, shuningdek, xorijiy mamlakatlar bilan aloqalarni kengaytirish talablari bilan bog'liq holda kun tartibiga dolzarb vazifalar qo'yildi. Shu talabdan kelib chiqib, toponimik, geografik, jumladan, tarixiy-geografik bilimlarga bo'lgan ehtiyoj ham ortdi. Zero, geografiyani yaxshi bilib borgan sari kishining atrof-muhit, jamiyat va olam haqidagi tushunchasi chuqurlashib, mukammallashib boradi, inson yer, suv va havo, umuman, tabiatdagi har bir narsaning o'rni, vazifasi hamda qadr-qiyamatini to'laroq anglab yetadi. Tarixiy toponimika va geografiya esa, yer yuzining o'tmishdagi relyefi, iqlimi, suvlari, tuprog'i, o'simligi, hayvonot dunyosi, aholisi va xo'jaligidan iborat majmuini o'z ichiga oladi. Hozirgi vaqtda tabiatni, jumladan, uning tarixini umumiy tarzda yoki ma'lum o'lkalar bo'yicha inson faoliyati bilan bog'liq holda o'rganish qator muammolar - tabiatni muhofaza qilish, atrof-muhitni sog'lomlashtirish, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish, ekologik holatni yaxshilash kabi muammolarni hal etishda dolzarb ahamiyat

kasb etmoqda. Boshqacha qilib aytganda, tarixiy-geografik tadqiqotlar vositasida tabiat va jamiyat taraqqiyotining o'tmishdagi holati xususida tasavvur shakllanadi.

ASOSIY QISM

Temuriylar saltanati tarixi haqida o'z davridayoq asarlar yaratilgani, uzoq moziydan bizning zamonamizgacha yetib kelgan yozma merosdan ma'lum va ularning hozirgi vaqtda saqlanib qolgan qismi jahonning turli qo'lyozma xazinalarida mavjud.

Amir Temur va Temuriylar davlati tarixini o'zida aks ettirgan yirik tarixiy manbalarning bir qismi Amir Temur saltanati haqida hikoya qiladi. Bu haqda Sharofiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma" asarida ancha aniq ma'lumot berilgan. U, jumladan, shunday yozadi:

"....sayidlar, olimlar, faqihlar, fazilat va ilm egalari, shuningdek, uyg'ur baxshilariyu, forsiy (zabon) adiblar hazrat Sohibqironga safarda ham, uyda ham uzluksiz mulozimlikda bo'lgan ekanlar.

Farmonga muvofiq, ulardan bir guruhi muntazam (ravishda) taqdir taqozosi bilan ul Hazratning yurish-turishi va so'zlarida, shuningdek, mulk, millat va arkoni davlat ahvolidan nimaiki kechgan bo'lsa, barchasini aniqlab, to'la-to'kis yozib borardilar.... So'z ustalari va bilimdon kishilar, ul Hazrat (Amir Temur)ning o'z oliy ishorati bilan, unga iboradan libos kiygizib, nazm va nasrda ta'lif ipiga tuzardilar. (Yozilganlarni) oliy majlisda hazrat Sohibqironga bir necha marta o'qib berardilar va shundan keyingina to'g'riligiga to'la ishonch hosil bo'lardi. Shu yo'sinda turkiy manzuma va forsiy qissa, har biri ul Hazratning yurish-turishidagi eng yirik (voqealarni) qamrab olgan nazm va nasr qalamiga olingan edi..."[8].

Sharofiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarida keltirilgan yuqoridagi so'zlaridan ma'lum bo'ladiki, Amir Temur saltanatida uyg'ur baxshilari (turkiy tilda yozuvchi tarixnavislar va dostonchilar) va forsiyzabon adiblardan iborat tarixnavislar bo'lgan va ular yurishlarda qatnashib, voqealarni bevosita mushohada etishgan va shu asosda ma'lumotlar to'plashgan.

Yig'ilgan ma'lumotlar Amir Temur nazdida tahrirdan o'tkazilgan, so'ngra nazm va nasr qalamiga olingan. Yozilganlar oliy majlisda (boshqacha qilib aytganda, ilmiy davrada) muhokama qilingan. Shu asosda yaratilgan turkiy manzuma va forsiy qissa Amir Temur saltanati tarixini tuzishda mutasaddi etib tayinlangan tarixchilarning maxsus nazoratidan o'tkazilgan. Ana shunday tarixiy asar (yoki asarlar) yozilgani, biroq ular hali bir yaxlit kitob talabi darajasiga keltirilmaganini, Nizomiddin Shomiy ham ta'kidlab o'tadi[9].

Afsuski, Amir Temur davrida tuzilgan turkiy manzumalar va forsiy qissalar bizgacha yetib kelgani yo'q, lekin Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma" va Sharofiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarlari ana shu asosda yaratilgani aniq [10, 11].

G'iyosiddin Ali. "Ro'znomai g'azovoti Hindiston" ("Hindiston muhorabasi kundaligi") Amir Temur hukmronligi tarixiga bag'ishlab forsiy tilda yozilgan ilk manbalardan. Muallif

mazkur asarni 1399 yili yozgan. Amir Temurning Hindistonga yurishi tavsifini o'z ichiga oladi va keyingi tarixchilar uchun asosiy manba vazifasini o'tagan.

G'iyosiddin Alining "Ro'znomai g'azovoti Hindiston" asari matni nashr etilgan (Petrograd, 1915) va rus tiliga tarjima qilingan [3]. Uning bitta qo'lyozma nusxasi O'zRFA Sharqshunoslik instituti fondida saqlanmoqda [12].

Mazkur asar Markaziy Osiyoning janubiy qismi – Afg'oniston hududi tarixiy geografiyasi uchun materiallar olish jihatdan muhimdir. Unda mazkur o'lkaning sharqiy - Kofiriston qismining tabiati, savdo yo'llari, aholi maskanlari to'g'risida ma'lumot aks etgan.

Nizomiddin Shomiy "Zafarnoma". Sohibqiron Amir Temurning hayotligida, bevosita uning topshirig'i bilan yozilgan asar. Bu kitob Amir Temur saltanati tarixidan so'zlovchi dastlabki mukammal manba sanaladi. Asar muallifi Nizomiddin Shomiyning Sohibqiron Amir Temur bilan uchrashuvi 1400 yili Halab shahrida, Sohibqiron lashkari bu shaharni egallaganda sodir bo'ladi: "U vaqtda bu banda Nizomiddin Shomiy) Hijoz safarini niyat qilib, Halab shahriga yetib kelgan va bir jamoaning qo'liga asir tushib qolgan edim"[9], - deb yozadi Shomiy o'zining Halabga kelgani sababi haqida. Amir Temur uni yaxshi qabul qiladi va tarixchi shundan so'ng Sohibqiron xizmatida qolgan bo'lishi kerak. Chunki hijriy 804 milodiy 1401-1402) yili Amir Temur unga o'z yurishlari tarixini yozishni topshirgan va mazkur voqea haqida Nizomiddin Shomiy shunday yozadi:

"...bu kitob yozilishining sababi shul erdikim,... garchi u zot qilgan ishlarining bu abadiyatga ulangur davlatning boshlanishidan tortib, to hozirgi kungacha bo'lgan tarixini onhazrat uchun yozgan bo'lsalar ham, ammo ular hali munosib tarzda jamlanib, taqdim etilmagan ekan. Bu banda (Nizomiddin) ularni yig'ib, ortiqcha so'zlardan tozalab, bob-bob qilib tartib berishga mashg'ul bo'lgaymen, lekin shu shart bilanki, takallufu bezak berish, lof urish ziynatidan o'zimni tiygaymen,... (toki) avom xalq uning ma'nisini anglagay, xos kishilar esa unga ayb qo'ymagay" [9].

Demak, ma'lum bo'ladiki, Nizomiddin Shomiyga Amir Temur haqida ilgari tuzilgan tarixlar va mavjud materiallar asosida bitta mukammal va ixcham tarixiy asar yaratish lozim bo'lgan.

Nizomiddin Shomiy bu vazifani ko'ngildagiday ado etdi. Uning "Zafarnoma" asarida dastlab, Chingizxon avlodlari, jumladan, Chig'atoy ulusi hukmdorlari sanab o'tilgan, so'ngra Sohibqiron Amir Temurning siyosiy maydonga kelishi va uning zafarli yurishlari tavsiflangan. Voqealar sharhi hijriy 806-yil ramazon (milodiy 1404-y.mart)gacha yetkazilgan. Tarixchi o'z kitobini Amir Temurga yetti yillik yurishdan qaytishi chog'ida Ozarbayjonda taqdim etgan.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma" asari (Hofizi Abruning unga yozgan ilovasi – "Zayli Zafarnomai Shomiy" bilan birga) O'zR FA Sharqshunoslik

instituti xodimlari tomonidan to'la ilmiy izohlar bilan o'zbek tiliga o'girildi va u chop qilindi. Mazkur kitob asarning birinchi to'la nashri sanaladi[9].

Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma" asari mazmuniga ko'ra tarixiy kechinmalar bayonidan iborat bo'lib, geografik ma'lumotlar unda u yoki bu tarixiy voqea bayoni munosabati bilan uchraydi. Ularni jamlaganda Markaziy Osiyoning tarixiy geografiyasiga (tabiiy geografik – joyning geografik o'rni, iqlim, suvlari va boshqa tabiiy obyektlar va xo'jalik obyektlari – aholi maskanlari, ma'muriy holat, joyning maqomi, harbiy yurishlar yo'nalishlari va savdo aloqalari) oid ba'zi ma'lumotlar olish mumkin.

Rui Gonsales de Klavixo (vaf.1412 y.). "Samarqandga, Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi"

XV asr boshida Amir Temur davlati bilan G'arbiy Yevropa davlatlar o'rtasida elchilik munosabatlari rivojlandi va Sohibqiron Fransiya, Angliya, Ispaniya, Italiya kabi bir qancha yirik davlatlar bilan elchilar orqali yozishmalar olib borgani ma'lum. Jumladan, Ispaniya (Kastiliya va Leon qiroli Genrix III) elchilari Payo de Soto Mayor va Ernan Sanches de Palasuelos Kichik Osiyoga safar qilib, ularga o'sha davrning eng qudratli davlatlari – Amir Temur davlati va Usmonli Turk sultonligi haqida aniq ma'lumotlar olib kelish topshirilgan edi. Taqdir taqozosi bilan elchilar Amir Temur va sulton Boyazid lashkarlari o'rtasida 1402 yil Anqara ostonasida yuz bergan katta jangni ko'rishga muvofiq bo'ldilar. Amir Temur mazkur jangda zafar qozongach, Ispaniya elchilari o'sha yerda ekanligidan xabar topadi va ularni yaxshi qabul qiladi va qaytishga ruxsat etar ekan, o'z nomidan Mahomat Al-kagi [4] (Muhammad al-Hoji) ismli kishini maktub, payg'om sovg'a – salom va kanizaklar bilan Ispaniya qiroli huzuriga elchi qilib yuboradi.

Bunga javoban Kastiliya va Leon qiroli Genrix III de Trastamara (1390-1407) ham katta xayrihohlik bilan Amir Temur huzuriga o'z elchilari – dinshunoslik magistiri Fra Alfonsa Pag'om de Santa Mariya, Rui Gonsales de Klavixo va Gomes de Salasarni maktub va hadyalar bilan yuboradi. Elchilar 1403-yili yo'lga chiqib, O'rta dengiz va Qora dengiz suvi yo'li orqali dastlab Tarabzun bandarigacha yetib keladilar, u yerdan ularga ot-ulovlar berib, to poytaxt Samarqandgacha har bir manzilda katta ehtirom va izzat – ikrom ko'rsatib boradilar.

Ushbu elchilikda bevosita qatnashgan Rui Gonsales de Klavixo safar (1403-1406 yillar) davomida ko'rgan-kechirganlarini kundalik tarzida yozib boradi va u fanda "Samarqandga, Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi" nomi bilan tanilgan.

Klavixo "Kundaligi" tarixda nafaqat Kastiliya qirolligi bilan Amir Temur davlati diplomatik munosabatlari tarixi, balki Movarounnahrning o'sha davrdagi tabiati, xo'jaligi, shaharlar yuksalishi va hunarmandchilik, xalqaro savdo-sotiq aloqalaridagi muhim o'rni, ayniqsa, Sohibqironning mislsiz bunyodkorlik faoliyati kabilar to'g'risida aniq ma'lumotlar qayd etilgan manbadir [5].

“Kundalik” ikkita qo‘lyozma nusxada (XV asr) saqlangan. U dastlab ispan tilida Ispaniyada chop etildi (Sevilya, 1582). Shundan so‘ng mazkur asar bir necha marta qayta bosilgan va Yevropa hamda rus tillariga (1881;1990) [2] ham tarjima qilingan.

Klavixoning mazkur “Kundaligi”ga O‘zbekistonda mustaqillik yillaridagina jiddiy e‘tibor qaratildi, undagi Movarounnahr o‘ld ma‘lumotlar ruscha nashri asosida o‘zbek tiliga o‘girilib, “Amir Temur va Ulug‘bek zamondoshlari xotirasida” nomli to‘plamda va Movarounnahr o‘ld qismidan lavhalar alohida risola shaklida chop etildi. Asar o‘zbek tiliga to‘la tarjima qilinib chop bo‘ldi [6].

XULOSA

Xullas, kundalik Movarounnahr va Xurosonning tarixiy geografias – savdo yo‘llari, relyefi, suvlari, aholi maskanlari, shaharlari (ayniqsa, Kesh va Samarqand topografias), dehqonchilik, bog‘dorchilik (ayniqsa, Samarqand atrofidagi bog‘lar tafsiloti), Amir Temurning Movarounnahrdagi bunyodkorlik ishlari kabilar haqida bevosita sayyohning ko‘rgan-kechirganlariga tayangan ma‘lumotlar berishi bilan muhimdir. Umuman olganda mazkur davr toponimikasini o‘rganishda yuqorida ta‘kidlangan asarlar va ushbu asarlarda keltirilgan ma‘lumotlar muhim ahamiyatga ega bo‘lib hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Islom sivilizatsiyasi markazi qurilishi bilan tanishuvda bildirilgan fikrlar. 21 dekabr', 2018 yil. <https://www.gazeta.uz>.
2. Amir Temur va Ulug‘bek zamondoshlari. 57-99-betlar; Klavixo. Dnevnik puteshestviya (1990).
3. Giasiddin Ali. Dnevnik poxoda v Indiyu.
4. Klavixo “Kundaligi”ning ispan tilidagi nashrida bu shaxsning ismi Mahomat Al-Cagi shaklida yozilgan.
5. Klavixo. Dnevnik puteshestviya (1990).
6. Klavixoning Samarqandga sayohati (2004).
7. Klavixo. Samarqandga Amir Temur saroyiga saroyiga sayohat kundaligi (2010). 264-b.
8. Yazdiy. Zafarnoma. Movarounnahr voqealari.42-43 betlar.
9. Shomiy. Zafarnoma. T.,1996, B. 22, 23, 296.
10. Yazdiy. Zafarnoma (1972), v.439.;
11. Fasix Xavafi. Mudjmal Fasixi.-S.123.
12. G‘iyosiddin Ali. Ro‘znomai g‘azovoti Hindiston.